



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

***Dastlabki ma’lumot
2024 - yil yanvar- sentabr***




Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi

Тел. 71-203-88-20(21)

(* Tashkent shahri savdo ko‘rsatkichlarida yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 655 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 181 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 474 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 66 891,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,5 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 29 432,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,6%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 37 458,7mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 721,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	66 891,0	109,5
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	5 997,4	109,2
Bektemir	2 418,5	111,6
Yunusobod	6 838,9	115,4
Mirzo Ulug'bek	5 288,7	111,0
Mirobod	5 098,3	106,3
Shayxontohur	7 271,9	106,8
Olmazor	4 727,0	105,9
Sirg'ali	3 364,8	116,8
Yakkasaroy	5 336,0	115,5
Yashnobod	5 584,9	116,1
Yangihayot	1 047,8	119,8
Chilonzor	11 273,3	101,9

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida 2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (119,8 %), Sergeli (116,8 %) va Yashnobod (116,1 %) tumanlarida chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


(* Toshkent shahri savdo ko'rsatkichlarida yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr)



So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 17,5 % bilan 11 273,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,6 % bilan 1 047,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm







Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 37 458,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 7,8 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 56,0 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,6 % ga o'sdi va 29 432,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 44,0 % ulushiga to'g'ri keldi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko‘ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Chilonzor (20,9%), Uchtepa (13,5%) va Yunusobod (10,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 44,0 % ni tashkil etib, eng kata ulush Shayxontohur (13,4 %), Chilonzor (13,1 %), Yakkasaroy (11,2 %), Yashnobod (10,9 %) tumanlarida kuzatildi.

44,0 %

56,0 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Toshkent shahri

21 802,1

Yangihayot

5 837,5

Uchtepa

19 964,6

Chilonzor

40 874,9

Bektemir

38 758,6

Yunusobod

18 011,4

Mirzo Ulug'bek

15 863,0

Mirobod

33 322,2

Shayxontohur

19 819,8

Olmazor

11 608,6

Sirg'ali

19 781,2

Yakkasaroy


39 293,0

Yashnobod

18 377,5

2024- yilning yanvar- sentabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 21 802,1 ming. so'mni 2023-yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 106,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Chilonzor (40 874,9 ming. so'm), Yakkasaroy (39 293,0 ming. so'm) va Bektemir (38 758,6 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- sentabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd. so'm	2023 - yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	1 721,7	118,4
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	73,6	55,4
Bektemir	358,7	81,5
Yunusobod	270,9	196,3
Mirzo Ulug'bek	210,1	92,9
Mirobod	18,6	26,9
Shayxontohur	265,5	168,8
Olmazor	67,5	179,6
Sirg'ali	53,0	93,2
Yakkasaroy	36,4	72,9
Yashnobod	165,7	174,3
Yangihayot	-	-
Chilonzor	201,8	4,3 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar- sentabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm












(2024- yil yanvar-sentabr)



Toshkent shahri bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 721,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 118,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 547,9 mlrd.so'mni (120,2%), chorvamollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 173,8 mlrd so'mni (104,6%) tashkil etdi .













2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 547,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (838,9 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>838,9 mlrd. so'm</p>  <p>48,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>188,6 mlrd. so'm</p>  <p>11,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>75,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,4 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>94,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>40,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,3 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>36,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,1 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>94,6 mlrd. so'm</p>  <p>5,5 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>124,7 mlrd. so'm</p>  <p>7,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,01 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>38,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>33,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,9 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p> <p>0,1 %</p>

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 173 815,9 mln. so'mni (104,6 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 143 751,2 mln.so'm, qo'y va echkilar – 23 623,6 mln. so'mni, otlar – 6 019,9 mln. so'mni, parrandalar – 421,2 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>86 877,3 mln. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollari</p> <p>25 725,4 mln. so'm</p>  <p>1,5 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollari</p> <p>31 148,5 mln. so'm</p>  <p>1,8 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>19 312,1 mln. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Otlar</p> <p>6 019,9 mln. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>4 311,5 mln. so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>86,2 mln. so'm</p>  <p>0,01 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>52,4 mln. so'm</p>  <p>0,003 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>174,2 mln. so'm</p>  <p>0,01 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>108,5 mln. so'm</p>  <p>0,01 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 946 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 46 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 900 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	18 189,6	111,7
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	153,9	119,6
Bektemir	141,6	140,7
Yunusobod	967,7	115,5
Mirzo Ulug'bek	735,3	111,8
Mirobod	992,0	191,3
Shayxontohur	1 599,6	85,6
Olmazor	426,0	111,5
Sirg'ali	534,3	114,5
Yakkasaroy	661,6	105,5
Yashnobod	473,1	111,9
Yangihayot	120,1	145,6
Chilonzor	706,8	127,2

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 18 189,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 58,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	42 202,7	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	957,4	2,3
Bektemir	1 600,7	3,8
Yunusobod	5 721,3	13,6
Mirzo Ulug'bek	1 366,1	3,2
Mirobod	6 528,0	15,5
Shayxontohur	4 211,7	10,0
Olmazor	510,5	1,2
Sirg'ali	14 288,9	33,9
Yakkasaroy	2 381,6	5,6
Yashnobod	1 571,6	3,7
Yangihayot	1 042,6	2,5
Chilonzor	2 022,1	4,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (14 288,9 mlrd. so'm), Mirobod (6 528,0 mlrd. so'm) va Yunusobod (5 721,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar- sentabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 42 202,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 14 484,3 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 150,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 27 718,4 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati – 129,0 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 154 287,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

34,9 %

53 889,0 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

65,1 %

100 398,7 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 100 398,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 65,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 17 213 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 258 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 16 955 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Bektemir (125,8%), Mirobod (113,3 %) va Uchtepa (111,8 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	154 287,7	107,6
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	7 463,9	111,8
Bektemir	2 246,4	125,8
Yunusobod	13 263,8	109,0
Mirzo Ulug'bek	11 498,0	108,7
Mirobod	16 023,8	113,3
Shayxontohur	8 268,2	102,4
Olmazor	18 193,9	107,2
Sirg'ali	5 807,5	88,4
Yakkasaroy	16 254,4	109,0
Yashnobod	17 704,4	107,5
Yangihayot	2 730,5	109,9
Chilonzor	14 301,3	103,9